
III BO'IM. MADANIYATSHUNOSLIK, SOTSIOLOGIYA,

SIYOSATSHUNOSLIK

Shoira Asadova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi
dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: Shoira.21.01@gmail.com
ORCID: 0009-0005-7553-2954*

YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIY JARAYONLAR:

TRANSFORMATSIYA, DAVLAT SIYOSATI VA

GLOBAL TENDENSIYALAR

***Annotatsiya.** Maqolada Yangi O'zbekistonda 2017–2026-yillarda madaniy jarayonlarning transformatsiyasi, madaniyat sohasida amalga oshirilgan davlat siyosati va institutsional islohotlar tahlil qilingan. Madaniy merosni muhofaza qilish va raqamlashtirish, madaniyat muassasalarini modernizatsiya qilish, ijodiy iqtisodiyot va madaniy diplomatiyani rivojlantirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, sohaning rivojlanish holati SWOT va PESTLE tahlillari asosida baholangan.*

***Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, madaniy jarayonlar, institutsional islohotlar, madaniy meros, raqamlashtirish, ijodiy iqtisodiyot, madaniy diplomatiya, SWOT, PESTLE.*

КУЛЬТУРНЫЕ ПРОЦЕССЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ:

ТРАНСФОРМАЦИЯ, ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И

ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

***Аннотация.** В статье анализируются трансформация культурных процессов в Новом Узбекистане в 2017–2026 годах, государственная политика в сфере культуры и осуществлённые институциональные реформы. Освещаются процессы сохранения и цифровизации культурного наследия, модернизации учреждений культуры, развития креативной экономики и культурной дипломатии. Также состояние развития данной сферы оценивается на основе SWOT- и PESTLE-анализов.*

Ключевые слова: Новый Узбекистан, культурные процессы, институциональные реформы, культурное наследие, цифровизация, креативная экономика, культурная дипломатия, SWOT, PESTLE.

CULTURAL PROCESSES IN NEW UZBEKISTAN: TRANSFORMATION, STATE POLICY, AND GLOBAL TRENDS

Abstract. *This article analyzes the transformation of cultural processes in New Uzbekistan during the period 2017–2026, with particular emphasis on state cultural policy and institutional reforms implemented in the cultural sector. It examines the processes of safeguarding and digitalizing cultural heritage, modernizing cultural institutions, and promoting the creative economy and cultural diplomacy. Furthermore, the current state of the sector is assessed through SWOT and PESTLE analyses.*

Keywords: *New Uzbekistan, cultural processes, institutional reforms, cultural heritage, digitalization, creative economy, cultural diplomacy, SWOT, PESTLE.*

XXI asrda madaniyat davlatlarning barqaror taraqqiyoti, milliy identikligini mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda xalqaro nufuzini oshirishning muhim strategik resurslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [1]. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ijodiy iqtisodiyot va madaniy diplomatiyaning kengayishi sharoitida mamlakatlarning raqobatbardoshligi nafaqat iqtisodiy salohiyati, balki milliy madaniy merosni asrash, uni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtira olish imkoniyatlari bilan ham belgilanmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan YUNESCO va OECD hujjatlarida madaniyat barqaror rivojlanish, ijtimoiy inklyuziya va innovatsion taraqqiyotning muhim omili sifatida baholanadi. Shu bois ko'plab mamlakatlarda madaniy siyosat madaniy merosni muhofaza qilish, raqamlashtirish, ijodiy industriyalarni rivojlantirish va madaniy diplomatiyani qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda [2]. 2005-yilgi YUNESCO Konvensiyasi ijodiy industriyalarni qo'llab-quvvatlashning xalqaro huquqiy asoslarini belgilab berdi [3]. YUNESCO, OECD hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlarida madaniyat barqaror

rivojlanish, innovatsiyalar va ijtimoiy inklyuziyaning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan [4]. Bu yondashuv milliy madaniy siyosatni shakllantirishda xalqaro standartlar va ilg'or tajribalardan foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Yangi O'zbekistonda ham 2017-yildan boshlab madaniyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar mazkur xalqaro tendensiyalar bilan uyg'un ravishda shakllantirildi. Prezident farmonlari va Taraqqiyot strategiyasida madaniyat ijtimoiy-ma'rifiy soha sifatidagina emas, balki milliy taraqqiyot, ijodiy iqtisodiyot, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida belgilandi. Bu esa madaniyat sohasida boshqaruvning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga turtki bo'ldi.

2017-yildan Yangi O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Prezidentning 2017 va 2022-yillarda qabul qilingan farmonlari hamda Taraqqiyot strategiyasi madaniyat sohasini modernizatsiya qilish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash va boshqaruv tizimini takomillashtirishning konseptual yo'nalishlarini belgilab berdi [5]. Natijada madaniyat sohasi ijtimoiy-ma'rifiy vazifalar bilan bir qatorda milliy taraqqiyot, ijodiy iqtisodiyot va madaniy diplomatiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qarala boshladi.

Islohotlarning dastlabki bosqichi 2017-yil 31-mayda qabul qilingan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori bilan boshlandi [4]. Unda madaniyat muassasalarini modernizatsiya qilish, muzeylar, teatrlar va konsert tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijodkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Keyingi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sohani boshqarishning zamonaviy institutsional modelini shakllantirishga xizmat qildi.

2017–2026-yillarda madaniyat sohasida keng qamrovli huquqiy baza yaratildi. Jumladan, 4ta qonun, Prezidentning 35ta farmoni va qarori hamda Vazirlar

Mahkamasining 98ta qarori qabul qilindi [6]. Ayniqsa, "Madaniy faoliyat va madaniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi madaniyat sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimli tartibga solish va muassasalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Huquqiy islohotlar bilan bir qatorda institutsional boshqaruv tizimi ham takomillashtirildi. Boshqaruvni raqamlashtirish, muzey va teatrlarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va strategik rejalashtirish tamoyillarini qo'llash soha samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Bu jarayon markaziy va hududiy boshqaruv organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishga zamin yaratdi.

Islohotlarning keyingi bosqichida madaniyat sohasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, xususiy teatrlar, kino sanoati, bolalar kontenti va nodavlat madaniy ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar joriy etildi. Shuningdek, muzey fondlarini raqamlashtirish, elektron kataloglar, virtual muzeylar va raqamli arxivlarni shakllantirish madaniy merosni saqlash va ommalashtirishning yangi mexanizmlarini vujudga keltirdi.

Shu bilan birga, madaniyat sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi, yosh mutaxassislar hamda ijodkorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari joriy etildi. Biroq hududlar o'rtasida madaniy infratuzilmaning rivojlanish darajasidagi tafovutlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'atining bir xil emasligi va xususiy investitsiyalar ulushining yetarli darajada shakllanmagani sohaning dolzarb muammolari bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, 2017–2026-yillarda amalga oshirilgan huquqiy va institutsional islohotlar natijasida madaniyat muassasalari davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy institutdan madaniy xizmatlar bozorining faol ishtirokchisi, ijodiy iqtisodiyotning muhim subyekti va madaniy diplomatiyani

amalgaga oshiruvchi zamonaviy institutsional tizimga aylanish yo'liga o'tdi. Bu esa sohaning barqaror rivojlanishi uchun huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarni yanada mustahkamladi.

Yangi O'zbekistonda madaniy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy madaniy merosni muhofaza qilish, uni raqamli texnologiyalar asosida saqlash va ommalashtirish hamda madaniy resurslarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omiliga aylantirishdan iborat bo'ldi. Jahon amaliyotida madaniy meros nafaqat tarixiy boylik, balki milliy identiklikni mustahkamlovchi, madaniy turizm va ijodiy iqtisodiyotni rivojlantiruvchi strategik resurs sifatida baholanmoqda.

2017–2026-yillarda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish, muzey va arxiv fondlarini saqlash, moddiy hamda nomoddiy madaniy meros obyektlarini hujjatlashtirish va raqamlashtirish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda elektron kataloglar, raqamli ma'lumotlar bazalari, GIS texnologiyalari, 3D modellashtirish, virtual muzeylar va elektron arxivlar joriy qilinib, madaniy meros obyektlarini ilmiy hujjatlashtirish, uzoq muddat saqlash hamda keng jamoatchilik uchun ochiqqligini ta'minlash imkoniyatlari kengaydi [7].

Raqamlashtirish milliy muzeylar, arxivlar va kutubxonalar fondlarini xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, qo'shma ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va madaniy diplomatiya imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar madaniy meros obyektlarini tabiiy ofatlar, vaqt ta'siri va boshqa xavflardan muhofaza qilishning samarali vositasiga aylanmoqda. Ayni paytda, raqamli transformatsiya jarayoni qator muammolarni ham namoyon etmoqda. Jumladan, hududlar o'rtasida raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi bir xil emasligi, muzey va arxiv muassasalarida raqamli texnologiyalar bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi, yagona milliy standartlarning to'liq shakllanmaganligi hamda raqamli ma'lumotlarni uzoq muddatli saqlash bilan bog'liq texnik masalalar sohaning dolzarb vazifalari bo'lib qolmoqda. Bu esa

raqamli madaniy merosni boshqarishning institutsional va tashkiliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan islohotlar milliy madaniy merosni muhofaza qilish va ommalashtirishning zamonaviy modelini shakllantirdi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va O'zbekistonning xalqaro madaniy maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda madaniy siyosatning iqtisodiy o'lchovi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESCO, OECD va Jahon banki tahlillariga ko'ra, ijodiy iqtisodiyot innovatsion rivojlanishning eng tez o'sib borayotgan sohalaridan biri hisoblanadi [8]. U dizayn, arxitektura, kino, musiqa, teatr, nashriyot, audiovizual mahsulotlar, raqamli kontent, kompyuter o'yinlari va madaniy turizm kabi sohalarni qamrab olib, qo'shimcha qiymatni asosan intellektual mulk va ijodiy g'oyalar hisobiga yaratadi.

O'zbekistonda ham ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentning so'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlari bilan xususiy teatrlar, kino sanoati, dizayn, animatsiya, raqamli media va boshqa ijodiy yo'nalishlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi iqtisodiy mexanizmlari joriy etildi. Soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiyalar, davlat buyurtmalari va maxsus jamg'armalar ijodiy loyihalarni moliyalashtirish tizimini shakllantirib, madaniyat sohasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakunida O'zbekistonda ijodiy iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,7 foizni, sohaning iqtisodiy hajmi 56,8 trillion so'mni, eksport hajmi 770,6 million AQSh dollarini, band aholi soni esa 319 ming nafardan ziyodni tashkil etdi [9]. Bu ko'rsatkichlar ijodiy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq xalqaro qiyosiy tahlil ushbu ko'rsatkichlar rivojlangan davlatlardan past

bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida raqobatbardosh darajaga erishilayotganini tasdiqlaydi.

Madaniy siyosat samaradorligini baholashda rasmiy statistika muhim empirik asos hisoblanadi. Xususan, 2024-yilda respublikada 138ta muzey faoliyat yuritgan bo'lib [7], bu 2020-yilga nisbatan qariyb 31 foizga ko'pdir. 2025-yilda muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni 5,5 million nafarga yetgan va bir yil ichida 14,5 foiz o'sish qayd etilgan [7]. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xorazmda muzeylarga tashriflar yuqori bo'lib, bu madaniy meros va turizmning o'zaro integratsiyasi kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, muzeylarga tashrif buyurganlarning qariyb 1,4 million nafari xorijiy sayyohlar ekani milliy madaniy merosning xalqaro jozibadorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Teatrlar faoliyati ham madaniy faollikning o'sishini namoyon etmoqda. 2024-yilda mamlakat teatrlarida 10 479ta spektakl namoyish etilgan bo'lib, ularni 3,6 million nafar tomoshabin kuzatgan [9]. Shu bilan birga, kutubxonalarda elektron kataloglar, milliy elektron kutubxona va raqamli arxivlarning joriy etilishi ularning an'anaviy kitob saqlash muassasasidan zamonaviy raqamli bilim markazlariga aylanish jarayonini tezlashtirdi.

Hududiy tahlil madaniyat sohasida rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Samarqand, Buxoro va Xorazm madaniy turizm hisobiga yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, Toshkent shahri teatr san'ati va ijodiy industriyalarning asosiy markazi sifatida ajralib turadi. Ayni vaqtda ayrim hududlarda infratuzilma, raqamli xizmatlar va investitsiyalar yetarli emasligi sohaning mutanosib rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois kelgusida resurslarni hududlar kesimida samarali taqsimlash, raqamli infratuzilmani kengaytirish va madaniy xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Yangi O'zbekistonda 2017–2026-yillarda amalga oshirilgan madaniy siyosatni strategik baholash maqsadida SWOT va PESTLE tahlillari qo'llanildi. Ularning natijalari sohaning ichki salohiyati, mavjud muammolari, rivojlanish imkoniyatlari hamda tashqi omillarni kompleks baholash imkonini berdi.

SWOT tahliliga ko'ra, madaniy siyosatning asosiy kuchli jihatlari mamlakatning boy madaniy merosi, davlat tomonidan izchil qo'llab-quvvatlash, YUNESCO bilan samarali hamkorlik hamda so'nggi yillarda shakllangan huquqiy-institutsional bazaning mustahkamlanishi bilan belgilanadi [10]. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi infratuzilmaviy tafovutlar, raqamlashtirish sur'atining turlichaligi, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi va soha samaradorligini baholashning yagona indikatorlari to'liq shakllanmaganligi asosiy zaif tomonlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlil ijodiy iqtisodiyotning o'sishi, madaniy turizmni rivojlantirish, xalqaro grantlar va investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish madaniyat sohasining muhim istiqbollari ekanini ko'rsatadi. Biroq global ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi, iqlim o'zgarishi tufayli madaniy meros obyektlariga xavf ortishi, geosiyosiy beqarorlik va intellektual migratsiya kabi omillar soha rivojiga tashqi xavf sifatida saqlanib qolmoqda.

PESTLE tahlili madaniyat sohasi taraqqiyoti tashqi muhit omillari bilan chambarchas bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Siyosiy omil sifatida davlatning madaniyatni strategik tarmoq sifatida e'tirof etishi va izchil qo'llab-quvvatlash siyosati islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiy omillar ijodiy iqtisodiyot va madaniy turizmning o'sishi bilan, ijtimoiy omillar esa aholining, ayniqsa yoshlarning milliy qadriyatlar va madaniy merosga qiziqishi ortishi bilan tavsiflanadi.

Texnologik omillar raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), virtual muzeylar va raqamli arxivlarning joriy etilishi bilan bog'liq bo'lib, madaniyat sohasini boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Huquqiy jihatdan so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va institutsional islohotlar sohaning me'yoriy asoslarini mustahkamladi. Ekologik omillar esa iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar va urbanizatsiya sharoitida tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda.

Umuman, SWOT va PESTLE tahlillari Yangi O'zbekistonda madaniy siyosatning huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslari sezilarli darajada mustahkamlanganini, biroq sohaning raqamli transformatsiyasi, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, inson kapitali va investitsiya salohiyatini yanada kuchaytirish kelgusi rivojlanishning ustuvor vazifalari bo'lib qolishini ko'rsatadi [11]. Yangi O'zbekistonda 2017–2026-yillarda madaniyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar milliy madaniy siyosatni yangi bosqichga olib chiqqanini ko'rsatadi. Madaniyat davlat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etilib, sohaning huquqiy va institutsional asoslari mustahkamlandi, boshqaruv tizimi modernizatsiya qilindi hamda madaniyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlar shakllandi.

Tahlillar madaniy merosni muhofaza qilish va raqamlashtirish, muzeylar, teatrlar va kutubxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish, ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda madaniy diplomatiyani kengaytirish sohadagi asosiy yutuqlar ekanini tasdiqlaydi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida madaniy xizmatlar sifati yaxshilandi, aholining madaniy hayotdagi ishtiroki kengaydi va madaniyatning iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot sohada hal etilishi lozim bo'lgan qator vazifalar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, hududlar o'rtasida madaniy infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlarni qisqartirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, inson kapitalini mustahkamlash, xususiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, madaniy siyosat samaradorligini baholovchi zamonaviy indikatorlar tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. SWOT va PESTLE tahlillari sohaning ichki salohiyati yuqori ekanini, biroq raqamli transformatsiya, global raqobat, iqlim o'zgarishi va tashqi iqtisodiy omillarga moslashish kelgusi rivojlanishning ustuvor vazifalari bo'lib qolishini ko'rsatdi. Bu vazifalarning izchil amalga oshirilishi madaniyat sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, milliy madaniy merosni asrash va O'zbekistonning xalqaro madaniy makondagi nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umuman, Yangi O'zbekistonda madaniy jarayonlar transformatsiyasi milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, ijodiy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash hamda global madaniy makonga integratsiyalashuvning zamonaviy modeli shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon madaniyat sohasini mamlakatning barqaror taraqqiyoti va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylantirmoqda [12].

SWOT tahlili – bu tashkilot, loyiha, dastur, tadqiqot yoki shaxsning holatini baholash uchun qo'llaniladigan strategik tahlil usulidir. SWOT so'zi inglizcha to'rtta atamaning bosh harflaridan tashkil topgan:

S – Strengths (Kuchli tomonlar) – ichki afzalliklar.

W – Weaknesses (Zaif tomonlar) – ichki kamchiliklar.

O – Opportunities (Imkoniyatlar) – tashqi muhitdagi ijobiy omillar.

T – Threats (Tahdidlar) – tashqi muhitdagi salbiy omillar.

SWOT tahlilning asosiy maqsadi – obyektning hozirgi holatini har tomonlama baholash va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishdir.

PESTLE tahlili – bu tashkilot, loyiha, soha yoki davlat rivojiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni tizimli baholash usuli hisoblanadi. U strategik rejalashtirish, ilmiy tadqiqotlar, biznes, davlat boshqaruvi va ta'lim sohalarida keng qo'llaniladi.

PESTLE atamasi quyidagi omillarni anglatadi:

P – Political (Siyosiy omillar)

E – Economic (Iqtisodiy omillar)

S – Social (Ijtimoiy omillar)

T – Technological (Texnologik omillar)

L – Legal (Huquqiy omillar)

E – Environmental (Ekologik omillar)

PESTLE tahlilining maqsadi – tashqi muhitni kompleks baholash; imkoniyat va xavf-xatarlarni aniqlash; strategik qarorlar qabul qilishni asoslash; rivojlanish istiqbollari belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: Farmon, 2017-yil 7-fevral, PF-4947.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: Farmon, 2022-yil 28-yanvar, PF-60.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: Qaror, 2017-yil 31-may.
4. O'zbekiston Respublikasi. “Madaniy faoliyat va madaniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Madaniyat sohasini qo'llab-quvvatlash va ijodiy industriyalarni rivojlantirishga oid farmon va qarorlar to'plami. – Toshkent, 2023–2026.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Madaniyat sohasini rivojlantirishga oid qarorlar to'plami. – Toshkent, 2017–2026.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining madaniyat sohasi bo'yicha statistik to'plami. 2025. – Toshkent, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy sohasi. Statistik byulleten. – Toshkent, 2024.
9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. 2024-yil yakunlari bo'yicha madaniyat sohasi faoliyati to'g'risida axborot. – Toshkent, 2025.
10. UNESCO. Convention on the Protection and Promotion of the Diversity of Cultural Expressions. – Paris: UNESCO, 2005. – 28 p.
11. UNESCO. Culture: 2030 Indicators. – Paris: UNESCO, 2019. – 164 p.
12. UNESCO. Framework for Cultural Statistics (FCS). – Montreal: UNESCO Institute for Statistics, 2009. – 98 p.

13. *United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development.* – New York: United Nations, 2015. – 40 p.
14. *United Nations. Sustainable Development Goals Report 2024.* – New York: United Nations, 2024. – 54 p.
15. *OECD. Culture and Local Development: Maximising the Impact.* – Paris: OECD Publishing, 2018. – 100 p.
16. *World Bank. Cities, Culture, Creativity: Leveraging Culture and Creativity for Sustainable Urban Development.* – Washington, DC: World Bank, 2021. – 222 p.
17. *UNCTAD. Creative Economy Outlook 2024.* Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2024. – 136 p.
18. *Throsby D. Economics and Culture.* Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 208 p.
19. *Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas.* 2nd ed. – London: Penguin Books, 2013. – 304 p.
20. *Florida R. The Rise of the Creative Class.* – New York: Basic Books, 2014. – 488 p.
21. *ICOM. ICOM Code of Ethics for Museums.* – Paris: International Council of Museums, 2017. – 40 p.
22. *ICOMOS. Principles for the Preservation of Heritage Sites in the Digital Age.* – Paris: ICOMOS, 2023. – 32 p.